



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI  
*2023-yil  
yanvar-iyun*



## SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023-yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra **4 159,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **40,9** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 527,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **2 631,3** ming kishi (**63,3 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**4 159,1** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+42,8** ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar




**36,7%**

#### Qishloq



**63,3%**

### Aholining tabiiy harakati, ming kishi




### Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023-yil yanvar-iyun



### Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023-yil 1-iyul holatiga



2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **33,6 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **55,6 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **10,8 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **260,3 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **70,7 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **241,3 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **78,9 ming kishini** tashkil etgan.

## Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,7 yoshni** tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,3 yoshga**, ayollar uchun esa **76,1 yoshga** teng. Shahar joylari **75,4 yosh**, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **72,0 yoshni** tashkil etgan.



### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023-yil 1-iyul holatiga




### Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1-iyul holatiga, *ming kishi*

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>4 069,4</b>	<b>4 159,1</b>	<b>102,2</b>
Samarqand sh.	567,2	580,0	102,3
Kattaqo'rg'on sh.	92,6	94,5	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	166,8	171,0	102,5
Bulung'ur	195,2	199,6	102,3
Jomboy	182,3	187,0	102,6
Ishtixon	266,8	272,5	102,1
Kattaqo'rg'on	284,8	290,3	101,9
Qo'shrabot	137,6	140,4	102,0
Narpay	221,0	225,0	101,8
Payariq	263,1	269,7	102,5
Pastdarg'om	370,7	378,2	102,0
Paxtachi	148,8	151,1	101,5
Samarqand	264,1	270,1	102,3
Nurobod	157,5	160,5	101,9
Urgut	538,0	551,3	102,5
Toyloq	212,9	217,9	102,3

## Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023-yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Samarqand viloyatida 2023-yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **248,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,4** kishiga ortgan (2022-yilda 1 kv.km.ga **242,6** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 450,0** kishi, Samarqand shahrida **4 833,3** kishi, Toyloq tumanida **778,2** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **33,0** kishi, Qo'shrabot tumani **65,0** kishi, Paxtachi tumani **109,5** kishini tashkil etgan.

## Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi


1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



### QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




### Tug‘ilganlarning taqsimlanishi



### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-iyun, kishi









2023-yil yanvar-iyun oylarida **51,9** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,3** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan **0,5** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilda **24,8** promilleni tashkil etgan).

### VAFOT ETGANLAR



### Vafot etganlarning taqsimlanishi



### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-iyun, kishi


Urgut	1481	5,4 %
Samarqand sh.	1429	5,0 %
Pastdarg'om	790	4,2 %
Ishtixon	621	4,6 %
Kattaqo'rg'on	583	4,1 %
Payariq	542	4,1 %
Samarqand	519	3,9 %
Narpay	435	3,9 %
Toyloq	397	3,7 %
Paxtachi	385	5,2 %
Qo'shrabot	371	5,4 %
Bulung'ur	362	3,7 %
Jomboy	343	3,7 %
Oqdaryo	300	3,6 %
Nurobod	296	3,7 %
Kattaqo'rg'on sh.	199	4,3 %

2023-yilning yanvar-iyun oylarida **9,1** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,4** promille bo'lgan).



## O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-iyun, kishi




2023-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **49,3 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,1 %** i – o'simtalardan, **13,9 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **21,0 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## O'limning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun



## QAYD ETILGAN NIKOHLAR




## Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-iyun, birlik


Urgut	1659	6,1%
Samarqand sh.	1384	4,8%
Pastdarg'om	919	4,9%
Kattaqo'rg'on	727	5,1%
Payariq	723	5,4%
Ishtixon	649	4,8%
Samarqand	611	4,6%
Toyloq	569	5,3%
Bulung'ur	498	5,1%
Jomboy	460	5,0%
Narpay	449	4,0%
Oqdaryo	440	5,2%
Paxtachi	380	5,1%
Nurobod	351	4,4%
Qo'shrabot	277	4,0%
Kattaqo'rg'on sh.	240	5,2%

## Nikohlarning taqsimlanishi



2023-yilning yanvar-iyun oylarida **10,3** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida **5,7** promille bo'lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR




## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-iyun, birlik

Wiloyat	Soni	Koeffitsiyenti
Samarqand sh.	480	1,7%
Pastdarg'om	226	1,2%
Samarqand	202	1,5%
Urgut	180	0,7%
Payariq	154	1,2%
Kattaqo'rg'on	150	1,0%
Narpay	128	1,2%
Jomboy	127	1,4%
Toyloq	126	1,2%
Paxtachi	119	1,6%
Ishtixon	110	0,8%
Bulung'ur	93	0,9%
Kattaqo'rg'on sh.	83	1,8%
Oqdaryo	73	0,9%
Nurobod	69	0,9%
Qo'shrabot	66	1,0%


## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi



2023-yil yanvar-iyun oylarida **2,4** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yil yanvar-iyun oylarida **1,3** promille bo'lgan).


## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-iyun



2023-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **56,5 %** i farzandsiz, **22,0 %** i bitta farzand bilan va **21,5 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023-yilning yanvar-iyun oylarida **2 386** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan

## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2023-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 5 740 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 7 732 kishini, migratsiya saldosi minus 1 992 kishini tashkil etdi. (2022-yil yanvar-iyun oylarida minus 2 881 kishini tashkil etgan).

### Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-iyun)

*(kishi)*

	2022-yil			2023- yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>4 656</b>	<b>7 537</b>	<b>-2 881</b>	<b>5 740</b>	<b>7 732</b>	<b>-1 992</b>
Samarqand sh.	2 027	1 208	819	2749	1 570	1 179
Kattaqo'rg'on sh.	180	439	-259	224	284	-60
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	226	279	-53	268	296	-28
Bulung'ur	170	436	-266	172	395	-223
Jomboy	165	241	-76	179	224	-45
Ishtixon	205	546	-341	200	548	-348
Kattaqo'rg'on	299	519	-220	213	486	-273
Qo'shrabot	166	462	-296	178	509	-331
Narpay	100	358	-258	141	390	-249
Payariq	155	637	-482	268	688	-420
Pastdarg'om	333	443	-110	257	457	-200
Paxtachi	17	574	-557	178	521	-343
Samarqand	332	366	-34	367	358	9
Nurobod	88	289	-201	68	239	-171
Urgut	13	599	-586	123	608	-485
Toyloq	180	141	39	155	159	-4



## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: 66-235-72-35*